



MASHRAB G'AZALLARIDAGI ARUZ INKISHOFI

Sobirjanova Shaxrinsa

Namangan shahar 18-maktab

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17500793>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-oktabr 2025 yil

Ma'qullandi: 28-oktabr 2025 yil

Nashr qilindi: 31-oktabr 2025 yil

KEY WORDS

Mashrab, g'azal, aruz tizimi, vazn, bahr, rukn, ramal, hazaj, rajaz, poetika, ritm, mumtoz she'riyat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada XVII–XVIII asr o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lgan Boborahim Mashrab g'azallarining vazn xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir ijodidagi aruz tizimining qo'llanish doirasi, bahr va ruknlarning o'ziga xosligi, ularning mazmun bilan uyg'unligi ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda Mashrabning g'azal namunalarida uchraydigan ramal, hazaj, rajaz kabi bahrlarning ishlatilish xususiyatlari misollar asosida ko'rsatib beriladi. Shuningdek, shoirning xalqona ohangni aruz vazni bilan uyg'unlashtirish mahorati, ritmik va fonetik vositalardan foydalanish usullari tahlil etiladi. Maqola Mashrab poetikasini vazn jihatidan chuqur o'rganishga qaratilgan bo'lib, o'zbek mumtoz she'riyatining ritmik tizimini anglashga hissa qo'shadi.

Mashrab g'azaliyot sohasida barakali ijod qildi. Shoir she'riyatining vazn xususiyatlarini o'rganib chiqqanimizda, uning g'azallari o'zbek aruziga mansub 6 bahrning 18 vaznida bitilganligi ma'lum bo'ldi. Buyuk shoir o'z g'azallarini aruz tizimiga xos eng yoqimli, eng serjilo o'lchovlarida yozdi. Aruz she'riy o'lchov tizimi turkiy adabiyotda, jumladan, o'zbek adabiyotida IX asrdan buyon qo'llanilib kelinmoqda. Mashrab ijodidagi aruz inkishofini kuzatish shoirning mazkur she'riy o'lchov tizimiga munosabati, uning lirik she'riyatida aruz bahr va vaznlarining qo'llanilish ko'lami, bu sohada shoir mahoratining o'sib borish jarayonini tahlil qilish jihatidan ahamiyatlidir. Bu tadqiqot natijasida Mashrab aruzidagi an'anaviylik va kashfiyotchilik xususiyatlarini, shoirning o'zbek aruzi kamolidagi ishtiroki darajasini ham aniqlash mumkin. Bu tadqiqot uchu 1990-yilda Jaloliddin Yusupov tomonidan nashr etilgan "Mehribonim qaydasan" nomli to'plam va xuddi shu muallif nomi ostida (Jaloliddin Yusufiy) 2006-yilda nashrdan chiqqan Mashrab "Devon"i asos qilib olindi. "Mehribonim qaydasan" nomli to'plamga jami 224 g'azal, "Devon" ga esa 278 g'azal jamlangan. Shundan "Devon"dagi g'azallarga 57 ta avvalgi to'plamda mavjud bo'lmagan g'azal yangilik sifatida kiritilgan. Bundan kelib chiqadiki, "Mehribonim qaydasan" nomli to'plamdagi 3 g'azal "Devon" ga kiritilmagan. Buning sababini esa g'azallarda kuzatiladigan ayrim saktaliklar deya e'tirof etish mumkin.

"Devon" ga kiritilgan g'azallar ancha mukammal bo'lib, avvalgi nashrdagi xatoliklar tuzatilgan. Masalan, 1990-yilgi to'plamda "Dema" radifli g'azal quyidagi matla' bilan keltirilgan:

Davlat diyonatdin erur mardi badavlatman dema,
Dilda ma'ni bo'lmasa ahli haqiqatman dema .
G'azalni vazn jihatdan tahlil qilsak, quyidagi holat yuzaga keladi:

| | | | | | | | | | | | | | | | |
|-----|-----|-----|----|------|-----|----|-----|-----|----|----|-----|-----|-----|----|----|
| Dav | Lat | di | yo | nat | din | e | rur | mar | di | ba | dav | lat | man | de | ma |
| – | – | V | – | – | – | V | – | – | – | V | – | – | – | V | – |
| Dil | Da | ma' | ni | bo'l | ma | sa | ah | li | ha | qi | qat | man | de | ma | |
| – | V | – | – | – | V | – | – | – | V | – | – | – | V | – | |

Albatta, jadvaldagi xatolik aruzshunoslarimizning ham e'tiborini tortgan bo'lsa ajab emas. Birinchi misra rajazi musammani solim vaznida, ikkinchi misra esa ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan. Qolaversa, birinchi va ikkinchi misradagi hijolar miqdorida ham tafovut mavjud. Bunday hodisa esa aruz tizimida belgilanmagan. "Devon" da bu saktalik quyidagicha bartaraf etilgan:

Asli davlat din erur, mardi badavlatman dema,
Dilda ma'ni bo'lmasa ahli haqiqatman dema .

Endi bu baytlarni vaznga solsak, yuqoridagi xatolikni uchratmaymiz:

| | | | | | | | | | | | | | | |
|-----|----|-----|-----|------|----|-----|-----|----|----|-----|-----|-----|----|----|
| A | Li | dav | lat | din | e | rur | mar | di | ba | dav | Lat | man | de | ma |
| s | | | | | | | | | | | | | | |
| – | V | – | – | – | V | – | – | – | V | – | – | – | V | – |
| Dil | Da | ma' | ni | bo'l | ma | sa | ah | li | ha | qi | Qat | man | de | ma |
| – | V | – | – | – | V | – | – | – | V | – | – | – | | – |

"Devon" yuqorida ta'kidlaganimizdek, mukammal holda nashr qilingan. Avvalgi to'plamda bir g'azal ikkiga bo'linib, alohida holda g'azal sifatida berilgan bo'lsa, "Devon" da bu xatolik tuzatilgan. Chunki g'azal ikkiga bo'linib, alohida ikkita g'azal shakliga keltirilsa, ikkinchi g'azalda matla' bo'lmaydi. Bu esa g'azalning qonuniyatlariga zid keladi.

Mashrabning har ikkala to'plamdagi jami g'azallari (jami 281 g'azal) ni aruz tizimi bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

| № | Bahrlar | Vaznlar soni | G'azallar soni |
|---|-----------|--------------|----------------|
| 1 | Ramal | 6 | 120 |
| 2 | Hazaj | 5 | 127 |
| 3 | Rajaz | 2 | 16 |
| 4 | Mutaqorib | 1 | 11 |
| 5 | Mujtass | 2 | 3 |
| 6 | Muzori' | 2 | 4 |
| | JAMI | 18 | 281 |

Yuqoridagi jadvaldan ma'lum bo'ladiki, Mashrab she'riyatida hazaj bahri qo'llanilish darajasiga ko'ra birinchi o'rinni egallar ekan. Ma'lumki, hazaj bahri mafoiylun (V - - -) asliy ruknining baytdagi takroriga asoslangan bo'lib, arabcha "yoqimli ovoz", "xushohang kuy" degan ma'nolarini anglatadi

Hazaj bahri turkiy adabiyotda keng qo'llangan she'riy o'lchovlardan biri sanaladi. Turkiy she'riyat tarixiga nazar tashlasak, XIV asr adabiyotida undan ramal bahriga nisbatan ham ko'proq foydalanilganini ko'ramiz. Chunonchi, Qozi Burhoniddin o'zining 1300 dan ortiq g'azalining 504 tasini hazaj bahrída, 245 tasini ramal bahrída bitgan edi. Atoiy, Sakkokiy, Lutfiylar lirikasida ham mazkur vazn ular yaratgan g'azallarning aksariyati uchun asosiy o'lchov bo'lib xizmat qilgan. Ma'lumki, hazaj xilma-xil ohang xususiyatlariga ega bo'lgan 40 dan ortiq vaznni o'z ichiga oladi. Ular orasida falsafiy mushohadalarni, mahzun kechinmalarni ifodalashga mo'ljallangan salobatli, vazmin vaznlar ham, sho'x, sururli kayfiyat ifodasiga mos o'ynoqi, dilbar ohangga ega bo'lgan yengil vaznlar ham ko'pgina. XIV asr boshlaridan hazaj bahri vaznlari asosida lirik va liro-epik dostonlar yaratila boshladi.

Hazaj bahrining ritm-ohang imkoniyatlari tobora kengayib bordi.

Keyingi adabiyotimiz tarixida, zamonaviy she'riyatimizda Habibiy, Sobir Abdulla, Erkin Vohidovlar lirikasida ham ancha keng foydalanilgan.

She'riyatimizda hazaj bahrining asosan sakkiz va olti ruknli vaznlari qo'llanilgan. Mashrab ham mazkur o'lchov imkoniyatlarini nazarda tutgan holda o'z g'azallarining kattagina qismini, ya'ni 281 ta g'azaldan 127 ta g'azalini uning asosida yaratdi. Bu vaznlarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

| № | Vaznlar nomi | G'azallar miqdori |
|----------|--|--------------------------|
| 1 | Hazaji musammani solim | 84 |
| 2 | Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf | 35 |
| 3 | Hazaji musammani axrab | 6 |
| 4 | Hazaji musammani ashtar | 1 |
| 5 | Hazaji musaddasi mahzuf | 1 |
| | Jami | 127 |

Shoir g'azaliyotidan ancha keng o'rin olgan vazn bu hazaji musammani solim (ruknlari: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun tarzida) dir. Ijodkor o'zining 84 ta g'azalini ushbu vazn zaminida yozdi. Buning boisi, avvalo, vaznning ritm-ohang imkoniyatlarining kengligi edi, albatta. Zero, 12 cho'ziq va 4 qisqa hijoning muayyan takroriga asoslanuvchi mazkur vazn vazmin sokin ohangga ega:

| | | | |
|-----------|-----------|-----------|-----------|
| Mafoiylun | Mafoiylun | Mafoiylun | Mafoiylun |
| V - - - | V - - - | V - - - | V - - - |

Agar oshiqlik'im aytsam, kuyub jon-u jahon o'rtar,
Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o'rtar...

Qoshing mehrobi, ey dilbar, meningkim qiblagohimdir,
Yuzung mehri ko'ngulni ravshan etmaklikka mohimdir...

Borurman ostoniga sahar ohista-ohista,
Surarman ko'zlarimga hoki dar ohista-ohista...

Jafo qilding bu jonimga, vafoni ko'rmadim hargiz,
Bu olamda o'zumdek muhtaloni ko'rmadim hargiz...

matla'li g'azallaridagi kabi chuqur falsafiy qarashlar, lirik qahramonning teran kechinmalarini ifodalashga nihoyatda qo'l kelganligini ko'ramiz.

Shoir mazkur vazndan peyzaj lirikasining nodir obidalarini yaratishda ham, ma'shuqaning takrorlanmas go'zal qiyofasini gavdalantirishda ham mohirlik bilan foydalanadi. Bu fikrning isbotini

Bahoriston bo'ldi, rang-barang gullar bo'lib paydo,
Xazon etmak uchun, do'stlar, iloho kelmagay bode...

Latofat bog'i ichra qomating sarvi xiromondur,
Ko'ngul qumrisi tinmay doimo dar sho'ru afg'ondur.

singari baytlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Mashrab ushbu vaznning yangi imkoniyatlarini kashf etishga intilib, ichki qofiyalarni qo'llash vositasida unga o'zgacha ohang bag'ishlab, jozibadorligini yanada kuchaytirishga erishdi. Fikrimizning dalilini shoirning ushbu g'azalida ko'rib o'tamiz.

Murodingga yetay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l,
Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Og'izdan dur sochay desang, sharobi ishq ichay desang,
Yomonlardin qochay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l...

Namozu ro'zasi - ishq, Qiyomat tuhfasini - shavqi,
Vale islomlari - zavqi, hayoli - hushbiyobonliq...

Mening ko'nglimdadur to'fon, ki, Nuh andin etar armon,
Ki do'zax uchquni kim, uchqunining axgaridinman...

Undagi ichki qofiyalar g'azal ta'sirchanligini oshirgani sezilib turibdi, albatta. Mazkur qofiyalar asardagi mahzun ruhni chuqurroq ifodalashga xizmat qilgan.

Tavofi ostoningga g'aribu notavon keldim,
Umid aylab madad sendin bu chashmi xunfishon keldim.

Talab aylab visolingni, ko'rarman deb jamolingni,
Bo'lub bulbuli noloni, qilib ohu fig'on keldim.

Baytlari bilan boshlanuvchi g'azalda ular visol tarannumini, lirik qahramonning shodiyona kechinmalari, zavqli tuyg'ularini to'laroq aks ettirishga yordam berib, she'r ohangiga tantanavorlik, jo'shqinlik bag'ishlaydi. Mazkur vazn hozirgi zamon shoirlari ijodida ham keng qo'llanilgan. Ushbu o'lchovdagi she'rlarning "Shashmaqom" kuylarining 40 tasiga mos tushishi aniqlangan.

Mashrab g'azallarini vazn nuqtayi nazardan o'rganib chiqsak, shoir mumtoz she'riyatimizda keng qo'llangan bahrlarga, ularning eng xalqchil, serjilo vaznlariga alohida e'tibor bilan qarab, lirik she'rlarini shu asosda bitganligiga guvoh bo'lamiz. Shoir g'azal an'analariga to'liq rioya etgan, albatta. Shu o'rinda aruz tizimiga bir qancha kashfiyotlar olib kirgan.

Jumladan,

Bu ishq bozorida har lahza sardaftar bo'lay derman,
Egam dargohida man mundin ham behtar bo'lay derman.

G'azal hazaj bahrining sakkiz ruknli solim shaklida bo'lib, aruz an'analariga to'liq rioya etilgan. Ikkinchi baytda qo'llanilgan "mundin ham" so'ziga e'tibor qarataylik. Bu yerda vasl "ho" hodisasi mavjud. Vasl arabcha "ulanish" so'zidan olingan bo'lib, aruz tizimi asosida yaratilgan she'riy asarlarni ifodali o'qish jarayonida vazn talabi bilan ayrim yopiq hijolar oxiridagi undoshni undan keyin turgan hamda unli bilan boshlangan hijoga qo'shib talaffuz etish hodisasi hisoblanadi. Vasli "ho" esa she'riy misradagi ayrim yopiq hijolarning oxirgi undoshini vazn taqozosi bilan o'zidan keyingi turgan va "h" undoshi bilan boshlanuvchi hijoga qo'shib o'qish hodisasi sanaladi. Yuqoridagi baytda ham "mundin ham" so'zshakli vazn talabi bilan "mundinam" shaklida o'qiladi. Bu yerda shoir "h" tovushining bo'g'iz undoshi ekanligini, o'ta darajada yumshoq talaffuz etilishini inobatga olgan. Bu hodisa o'zbek adabiyotida juda kamdan kam uchraydi. Mashrabdan avvalgi shoirlarning birortasida bu hodisa kuzatilmaydi. Bu hodisa xalq og'zaki ijodi ta'sirida ijod qilgan va "turkona" deb ataluvchi sodda uslubga rioya qiluvchi shoirlar asarlarida uchraydi. Mashrabdan keyingi shoirlardan Muqimiy ijodida biz bu hodisani kuzatishimiz mumkin. Chunonchi, aruz tizimidagi bu hodisa ingliz tilida mavjud bo'lgan, so'z boshida kelgan "h" undoshini talaffuz etmaslik qoidasiga juda o'xshab ketadi. Masalan, "an hour" (bir soat) so'zidagi "h" tovushi talaffuz etilmasdan, artikl qo'shilganda "h" talaffuzda tushib qoladi [enour] yoki "humour" so'zini olaylik, "yumor" tarzida talaffuz etiladi. Biz bu bilan aruz tizimdan inglizlar shu hodisani o'zlashtirgan demoqchi emasmiz, albatta, faqatgina aruzning naqadar buyuk va qudratli ekanligini ta'kidlamochimiz. Bunga o'xshash misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Zero, aruz she'riy o'lchovining ildizlari juda keng va

mustahkamdir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mashrab aruz tizimidagi an'anachilik va kashfiyotchilikni munosib tarzda davom ettirgan deb ayta olamiz. Shoir turkiy tilning boy imkoniyatlaridan mohirona foydalangan bo'lib, bugungi kun g'azalxonlari ham uning ijod namunalari bema'lol tushunadi.

Hazaj bahri vaznlari orasida qo'llanilish doirasining kengligi bilan ajralib turuvchi yana bir o'lchov hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vazni bo'lib, ruknlari va chizmasi quyidagicha:

| Ma'uvlu | Mafoiyu | Mafoiyu | Fauvlun |
|---------|---------|---------|---------|
| - - V | V - - V | V - - V | V - - |

Ko'rinib turibdiki, uning tarkibi mafoiylun aslining axrab tarmog'i ma'ulu (sadr va ibtidoda), makfuf tarmog'i mafoiyu (hashvlarda) hamda mahzuf tarmog'i faulunlarning takroridan tashkil topadi. Misralarda 6 qisqa va 8 cho'ziq hijoning shu tarzda juft-juft bo'lib, takrorlanishi jozibali va sho'x ohangni vujudga keltiradi. Bu serjilo, o'ynoqi vazn turkigo'y shoirlar diqqatini XIV asrdayoq o'ziga jalb qilgan edi. Bu davrda yashab ijod etgan turkiy adabiyot vakillari she'riyatini ko'zdan kechirsak, mazkur vaznilarning g'azaliyotida markaziy o'rinni turishini ko'ramiz. Chunonchi, Qozi Burhoniddinning 1300, shu jumladan, hazaj bahridagi 504 g'azalidan 236 tasi, Lutfiyning 276, shujumladan, hazaj bahridagi 104 g'azalidan 56 tasi shu vazn asosida yaratilgan edi. Mashrab ham bu vaznga alohida ahamiyat qaratib, aksariyat g'azallarini aynan shu vaznda yozgan. Uning 281 ta g'azalidan 35 tasi hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida yozilgan. Mashrab Lutfiyning

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

bayti bilan boshlanuvchi g'azaliga nazira bitgan. Ushbu g'azal ham aynan hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida bitilgan. Mashrab ushbu g'azal orqali bu vaznga xos jozibadorlikni isbotlab berdi.

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

G'am shomi firoqingda kabob etti falakni,
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Nogah sari zulfung sori bo'ldum senga moyil,
Ey toji sarim, xoh inon, xoh inonma.

Ya'niki, Lutfiyning "Xoh inon, xoh inonma" radifli g'azali ham aynan hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida bitilgani uchun ham Mashrab javob tariqasida yozilgan g'azalni ham shu vaznda bitishi kerak edi. Ikkinchidan, radif qilib olingan "xoh inon, xoh inonma" so'zi ham shuni taqozo qiladi.

| | | | | | | |
|---------|---|-----|---------|---|-----|----|
| Xoh (i) | i | non | xoh (i) | I | Non | ma |
| - V | V | - | - V | V | - | - |

Vazn talabi bilan “xoh” so‘zidan keyin bitta qisqa “i” unlisi orttirilib talaffuz etiladi. Qofiyaga tanlangan so‘zlar esa sevarim, jigarim singari so‘zlar sof turkiy so‘zlar hisoblanib, 2 ta qisqa va 1 cho‘ziq hijodan iborat

| | | |
|----|----|-----|
| Se | va | Rim |
| V | V | - |

| | | |
|----|----|-----|
| Ji | ga | rim |
| V | V | - |

Tabiiyki, bu holat vazni belgilashda ahamiyat kasb etadi. Qofiya va radif taqte‘larini birlashtirsak, vazn yanada qat‘iylashadi. Ko‘rib turganingizdek, Mashrab bu g‘azalni boshqa vaznda yoza olmas edi.

Shuningdek, Mashrabning

Dargohingga bir ojizi afgor kelibman,
Arzi dilimi aytgali chun zor kelibman.

Yo‘qdur meni ilkimda senga tuhfayi loyiq,
Juz zilli gunah, el ichida xor kelibman.

Rad qilma, qabul aylaki, sharmandalig‘imdin,
Rasvoi jahon, ko‘chai bozor kelibman.

matla‘li kabi o‘nlab jilvador g‘azallari shoirning ushbu vazndan foydalanishdagi san‘atkorligini yaqqol ko‘rsatib bergan.

Hazaji musammani axrab vazni shoir g‘azaliyotidan uncha kata o‘rin egallay olmagan. Mashrabning bitta g‘azali shu vaznda yozilgan. Ma’ulu va mafoiylun ruknlarining muntazam tarzda takrorlanishi she‘rga o‘zgacha bir ritm bag‘ishlaydi:

| | | | |
|--------|-----------|--------|-----------|
| Ma’ulu | Mafoiylun | Ma’ulu | Mafoiylun |
| - - V | V - - - | - - V | V - - - |

Ushbu o‘lchovda yozilgan dastlabki she‘r Atoiy ijodida uchraydi. Mavlono Lutfiyning esa 5 ta g‘azali shu o‘lchovda yozilgan edi. Hofiz Xorazmiy mana shu vazn asosida o‘zining 9 g‘azalini bitgan. Alisher Navoiy “Mezon-ul avzon” asarida hazaj bahrining yoqimli vaznlari qatorida ushbu o‘lchovni ham sanab o‘tib, unga

To ko'z bila ko'nglumni ul g'amza maqom etmish,
Qonimni halol aylab, uyqumni harom etmish.

baytini misol qilib keltiradi. Bobur o'zining "Muxtasar" asarida hazaj bahriga mansub musta'mali matbu' o'lchov qatorida ushbu vaznni ham alohida ta'kidlab, uning ohang imkoniyatlarini namoyish qilish uchun Hofiz Sheroziy, Jomiy, Shohiyning forsiy she'rlaridan, Alisher Navoiy, Shoh Na'liy, o'zining turkiy g'azallaridan namunalar keltirib o'tadi. Quyida Mashrabning ushbu o'lchovda yozilgan g'azaliga nazar solamiz:

Ul dilbari ra'noni men yor tutay derman,
May bersa agar ondin bir qatra totay derman.

Jannat bila rizvonin ham hur ila g'ilmonin,
Balki obi hayvonin bir pulga sotay derman.

Olam hama laylidur tun qoshi qarosidek,
Boqib yuziga, oydek raxshona ketay derman.

mat'lasini bilan boshlanuvchi g'azalini kuzatsak, uning vazn imkoniyatlaridan latif ohangli asarlar yaratishda foydalanilganini ko'ramiz.

Mashrab hazaji musammani ashtar vaznida ham birgina g'azal yozgan bo'lib, bu vazn ham o'ynoqi, serjilo vaznlardan biri hisoblanadi. Cho'ziq va qisqa hijolarning shu hildagi takrori yoqimli ohangni hosil qiladi:

| Foilun | Mafoiylun | Foilun | Mafoiylun |
|--------|-----------|--------|-----------|
| - V - | V - - - | - V - | V - - - |

Ushbu o'lchov XVI asrga qadar turkiy adabiyotlarda, jumladan, o'zbek shoirlari ijodida qo'llanmagan ko'rinadi. Zero, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy, Hofiz Xorazmiylar ijodida ushbu vaznda yozilgan birorta ham g'azalni uchratmaymiz. Mazkur vaznni Alisher Navoiy "Mezon-ul avzon" asarida tilga ham olmaydi. Va uning asosida o'zi ham turkiy she'r yozmagan. Bu o'lchovdagi dastlabki she'rlar Bobur ijodida uchraydi. Shoir o'zining "Muxtasar" asarida bu vaznni "musta'mali matbu'", ya'ni yoqimli o'lchovlar qatorida sanab, Jomiy va Hofizlar ijodiga murojaat qiladi hamda turkiy she'rga misol tariqasida o'zining baytlaridan keltirib o'tadi. Mazkur vazn keyingi asrlarda she'riyatimizdan mustahkam o'rin oldi va tobora kengroq qo'llana bordi. Ogahiyning 17 g'azali shu vaznda ekanligi fikrimizning dalilidir. Chunonchi, Mashrab ham aynan shu vaznda g'azal yaratganligi uning o'tkir iste'dodidan dalolat beradi. Quyida Mashrabning mana shu vaznda yozilgan g'azalidan parchani ko'rib o'tamiz.

Kokulungmu anbardur jon ichinda, jonon qiz,
Ko'zlaringmu axtardur ro'yi mohi tobon qiz.

Ko'rinib turibdiki, shoir ushbu vazndan mohirona foydalangan. G'azaldagi o'ynoqi kayfiyat, purma'no fikrlar g'azalning ifodali o'qilishini, tushunilishini ta'minlab bergan. Shu o'rinda, Mashrab ushbu vazndan ustalik bilan foydalangan holda g'azalning ichida o'zaro ichki qofiyalardan foydalanganligi g'azalning go'zalligini oshirib yuborgan. Deyarli barcha baytlarda ichki qofiyadan foydalanilgan. She'riyatda ushbu usulda g'azal bitish "g'azali musajja" deb ham ataladi.

Lablaring erur la'ldek, yuzlaring qizil guldek,
Barcha el senga quldek xizimatingda farmon qiz.

Bir ko'rub seni, zolim, qolmadi mening holim,
Tang bo'lubdur ahvolim, bilmadingki, nodon qiz.

Orazing – ochilgan gul, sochlaring erur sunbul,
Tishlaring misoli dur, lablaringda pinhon qiz.

Bu baytda Mashrab ichki qofiyada talaffuz jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan gul, sunbul, dur so'zlaridan foydalangan. Ya'niki, l va r tovushlari sonorlik jihatidan, jaranglilik jihatidan bir guruhga mansub hisoblanadi. Alohida jihatlarga ajratganimizda esa l yon tovush, r titroq tovush sanaladi.

Kokulungni o'rganda, burqa boshga qo'yganda,
Jonim o'rtanur tanda, oftobi davron qiz.

Bu baytda ham ichki qofiyaga olingan so'zlar to'liq qofiya qoidalariga mos kelmaydi. O'rganda va qo'yganda so'zlaridagi asoslar o'r va qo'y sanaladi. Bu so'zlardagi r va y qofiya uchun asos bo'lolmaydi. Uchinchi qofiya tandaning asosi tan bo'lib, bu so'z ham tepadagi so'zlarga qofiya bo'la olmaydi. Lekin talaffuz jihatidan bu so'zlar bir-biriga monand. Shuning uchun shoir bu so'zlarni ichki qofiya sifatida ishlatgan.

Oy yuzungni ko'rganda, lablaringni so'rganda,
Mashrabing bo'lur banda, la'li shakkarafshon qiz.

Ushbu baytlardagi ichki qofiyalarda ham xuddi yuqoridagi holat takrorlangan. Mashrab hazaj bahrining olti ruknli o'lchovlari orasida hazaji musaddasi mahzufdan ham g'azal yaratishda foydalangan. Uning bitta g'azali shu vaznda yaratilganligi aniqlandi. Bu vazn yengil, jozibador, mumtoz va xalq kuylariga juda mos bo'lib tushadigan vaznlardan hisoblanadi:

| Mafoiylun | Mafoiylun | Faulun |
|-----------|-----------|--------|
| V - - - | V - - - | V - - |

Binobarin, uning tarkibini mafoiylun aslining solimi hamda shu aslning mahzuf tarmog'i faulunlar takrori tashkil qiladi. 3 ta qisqa va 8 cho'ziq hijoning shu tarzda takrori yoqimli ohang va musiqiy ohangni tashkil qiladi. Olti ruknli o'lchov lirik she'riyat uchun ham, dostonchilik uchun ham nihoyatda qulaydir. Shuning uchun ham mazkur vazn XIV asrdan XX asr boshlariga qadar muttasil va keng qo'llanilib kelingan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'tmishdagi shoirlar orasida xalq ommasi ichiga Mashrabdek kirib borgan va shuhrat topgan ikkinchi bir shoirni topish qiyin. Mashrab xalq xotirasida qalamidan ilohiy she'rlar to'kilgan shoirgina emas, ikkiyuzlamachilikning, soxtakorlikning, nafsga qullikning shafqatsiz dushmani sifatida ham qolgan. Mashrab haqida yurgan rivoyat-u afsonalarning aksariyati shoirga nisbat berilgan she'rlarning mazmuniga moslangan. Uni muxlislari avliyo darajasiga ko'targanlar. Mashrabning bizga ma'lum she'rlari mumtoz adabiyotimizning keng tarqalgan g'azal, mustazod, murabba', muxammas, musaddas, musabba' (yettilik) janrlarida. Bulardan eng ko'pi, shubhasiz, biz tahlil qilgan g'azal. Inchunun, Mashrabning g'oyaviy-axloqiy qarashlari hozirgi vaqtda ham zamondoshlarimizni yuksak ma'naviy ideallar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Mashrab she'riyati millionlab kishilar qalbidagi ezgu va oliyjanob tuyg'ularni, haqqa, haqiqatga bo'lgan tashnalikni topib ifoda etgan she'riyatdir. Shoir o'z asarlarida o'z tuyg'ularini shunchaki ifodalagan emas, balki baland pardalarda tarannum qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mashrab. Me'ribonim qaydasan (Nashrga tayyorlovchi J.Yusupov). – T.: Ga'fur Gulom, 1990, 226-bet
2. Mashrab. Devon (nashrga tayyorlovchi J.Yusufiy). – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
3. A. Navoiy. Muqammal asarlar tuplami. Mezon-ul avzon. 16-tom. –T.: "Fon", 2000.
4. Yusupova D. Aruz alifbosi. –T.: "Akademnashr", 2015.